IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

“O‘TKAN KUNLAR” ASARIDA ISMLAR TALQINI

Shodiyeva Gulzoda

Farg’ona davlat universiteti

filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **D.Umarova**

Annotatsiya

Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asaridagi qahramonlar ismlari, ularning qahramon xarakterini ochishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar

Roman janri, qahramon, obraz, portret, sotsiologik tahlil.

Yozuvchi va shoirlar o‘z asarlarida asar muhitini ochib berish, qahramonlarning his-tuyg’ularini ifodalash uchun turli tasvir vositalari va boshqa usullardan foydalanadi. Mana shunday usullardan biri bu adibning o‘z qahramoniga qo‘ygan ismlaridir. Adib qahramoni uchun shunchaki ism tanlashi ham mumkin, lekin aksariyat hollarda har bir ismning o‘z badiiy vazifasi bo‘ladi. Tanlangan ismlar qahramon xarakterini, badiiy holatini, xulq-atvorini ifodalash uchun xizmat qiladi. Qahramonning ismini o‘qir ekan, o‘quvchida ilk taassurot paydo bo‘ladi, ijobiy yoki salbiy fikr uyg’onadi. Shunday ekan, adib o‘z qahramoni uchun mos ism tanlashi juda muhim vazifalardan biridir. Ba’zida yozuvchi qahramoniga atayin ismi jismiga mos bo‘lmagan ism tanlaydi, bunda ham albatta qandaydir badiiy maqsad ko‘zlanadi. O‘zbek adabiyotida roman janrida yaratilgan ilk asar Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O‘tkan kunlar” asari hisoblanadi. Ushbu asarda adib qahramonlariga qo‘ygan ismlar bizga qahramonlarning xarakteri, dunyoqarashi va xulq-atvori haqida “xabar beradi”. “O‘tkan kunlar” romanidagi ba’zi qahramonlarga to‘xtalib o‘tsak:

Yusufbek hoji - o‘ta muloyim, rahmdil, millat va yurt dardi bilan yashaydigan xalqparvar inson. Hamisha millat dardini o‘zining dardidan ustun qo‘yadi, bu yo‘lda jonini berishdan ham qaytmaydi. Yusuf ismi Alloh taolo yer yuziga yuborgan payg’ambarlardan biridir. Dunyodagi eng go‘zal inson ham Yusuf alayhissalom edilar. Yusuf alayhissalom birgina chiroyda emas, odob-axloqda ham, ibo-hayoda ham insonlarning eng yaxshisi edilar. Hayolari shu qadar kuchli ediki, butun Misr ayollari u zotga oshiq bo‘lsa ham, u ayollarga ko‘zlarining uchi bilan ham boqmasdilar. Misr xalqining baxtli va farovon yashashi uchun doimo harakat qilardilar. Asar bosh qahramonlaridan biriga aynan Yusuf payg’ambarning nomi tanlangani yozuvchining maqsadini ochib bermoqda. Adib o‘z qahramonini xulq-atvorda va madaniyatda Yusuf alayhissalomga o‘xshashini xohlamoqda. Yusuf alayhissalom Misr xalqi uchun kuyinganidek, Yusufbek hoji ham Turkiston xalqi uchun xavotirga tushmoqda. Bu xavotirlarni Yusufbek hoji va Otabekning ko‘plab nutqida, shuningdek, Yusufbek hojining Toshkand ulamo va amaldorlariga qarshi chiqqan ko‘plab o‘rinlarda ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek oyim- “Ellik besh yoshlar chamaliq, chala-dumbul tabiatlik bir xotin bo‘lsa ham, ammo eriga o‘tkirligi bilan mashhur edi. Uning o‘tkirligi yolg’iz erigagina emas, Toshkand xotinlarig’a ham om edi. O‘zga xotinlar uning soyasiga salom berib to‘ylarida, azalarida, qisqasi, tiq etgan

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

yig'inlardagi uylarining to'rini O'zbek oyimga atagan edilar. Ul o'z uyida o'lturg'anida ham ustidagi atlas ko'ynak bilan adras mursakni, oq shohi dakana bilan kahrabo tasbihni qo'ymay, qish kunlari tanchadan par yostiqqa suyalib o'lturar edi". [1, 152] Ushbu parchada O'zbek oyimga xos ayrim jihatlar ochilmoqda. O'zbek ayollariga xos bo'lgan o'tkirlik, gapga chechanlik, ma'lum ma'noda quvnoqlik kabi xususiyatlar ko'zga tashlanmoqda. Shuningdek, O'zbek oyimning kiyimlari ham uni chin o'zbek ayoli ekanligiga yana bir marta ishora qilmoqda. Atlas va adras o'zbek ayol-qizlarining milliy kiyimidir. O'zbek oyim sovuq qish kunlarida ham atlas va adras kiyishi uning milliy an'analarimizga naqadar sodiq bir ayol ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, uning har doim Yusufbek hoji va Otabekka o'z so'zini o'tkazishga harakat qilishi, hamma to'y-marakalarga ham boravermasligi erksevarlik, g'ururlilik kabi xususiyatlarini ochib beradi. O'zbek oyimning butun dardi yolg'iz Otabek bo'lib, o'z oldida Otabekning baxtli hayot kechirishini, kelin olishni, orzu-havas qilishni xohlardi, ya'ni bir ona o'laroq farzandining baxti-kamolini ko'rishni xohlardi. Bu jihatlar chin o'zbek ayoliga xos xususiyatlardir. Biz O'zbek oyim timsolida haqiqiy o'zbek ayoli timsolini ko'ramiz. Yozuvchi shuning uchun ham qahramoniga bu ismni tanlagan bo'lsa ajab emas.

Homid - Homid ismining o'zagi arabcha hamd so'zidan olingan bo'lib, "maqtov", "madh", "ulug'lash", "shukur", "tashakkur" [2, 497] degan ma'nolarni anglatadi. Hamd - Xudo, payg'ambar va xalifalar, shohlar sha'niga aytiladigan maqtov, she'r, madhiya. Endi esa asarda yozuvchi Homid obraziga bergan ta'rifni ko'rib chiqaylik: "Uzun bo'ylik, qora cho'tir yuzlik, chag'ir ko'zlik, chuvoq soqol, o'ttuz besh yoshlarda bo'lg'an ko'rimsiz bir kishi". [1, 5] Homid ismining ma'nosiga Homid obrazining ta'rifi qanchalik to'g'ri kelmoqda? Umuman olganda to'g'ri kelmoqdami? Menimcha, yo'q. Homid o'zida bor bo'lgan shuncha boylik, obro'-e'tiborga qaramay ularning qadriga yetmaydi, shukur qilmaydi. Ikki nafar guldek xotini, farovon oilasi bo'lishiga qaramay, Kumushbibiga ham ko'z olaytiradi. U Kumushbibini odob-axloqi yoki ilmi uchun emas, chiroyli bo'lgani uchungina xohlaydi. O'tkinchi go'zallik uchun hamma narsaga tayyor. U Kumushbibining ichki dunyosi haqida deyarli bilmaydi, zotan, uning uchun botiniy go'zallik ahamiyat kasb etmaydi. Homid zohiriy go'zallikning shaydosi, uning quli. Shunchalik razilki, hatto Kumushbibi turmushga chiqqandan so'ng ham uni tinch qo'ymaydi, oilasini buzishga kirishadi. Bu jihatlar Homidning ismi qilayotgan ishlariga va xarakteriga umuman mos emasligini ifodalaydi. "Ismi jismiga mos emas" iborasi aynan Homid uchun aytilgandek go'yo. Yozuvchi asardagi ushbu salbiy qahramonga o'ziga mos bo'lmagan ismni qo'yish orqali bu hayotda hamma ham ismiga muvofiq yashay olmasligini, shu birgina ismning ham yukini ko'tara olmasligini ko'rsatib bermoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ijodkor asar yaratar ekan, asarda adibning g'oyaviy-badiiy maqsadi aks etishi tabiiydir. Bu yo'lda adib turli vosita va usullardan foydalanadi. Shunday vositalardan biri yuqorida ko'rib o'tilganidek asar obrazlarining ismlaridan foydalanishdir. Asardagi ismlarni to'g'ri anglay olish kitobxonni ijodkorning badiiy-estetik maqsadiga ancha "yaqinlashtiradi". Shuningdek, yaxshi ism qo'yish har bir ota-onaning bola oldidagi vazifasi, ammo bu ismga mos bo'lish farzandning vazifasidir. Shunday ekan, go'zal ismiga mos go'zal axloqli bo'lib hayot kechirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodiriy.A. O'tkan kunlar - "Yangi asr avlodi" - 2016
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 5-jild – "O'zbekiston" - 2008 .

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

3. Umarov, D., & Tojimatova, Z. (2023). INTERPRETATION OF THE HERO OF A LITERARY WORK. Modern Science and Research, 2(6), 1104-1106.
4. Odiljon o‘g‘li, U. D. (2023). ADABIY ASAR QAHRAMONI TALQINIDAGI O 'ZIGA XOSLIKLAR. IQRO , 2 (2), 777-785.
5. Umarov, D. (2023). THE IMPORTANCE OF LITERARY CRITICISM ARTICLES IN LITERARY STUDIES. Modern Science and Research, 2(6), 848-853.
6. Baxtiyorjon o‘g‘li, S. J. (2023). SHARQ AGIOGRAFIYASI RIVOJIDA SIYRA JANRINING AHAMIYATI. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 2(14), 38-41
7. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING
8. MAZMUN-MOHIYATIDAGI EVRILISHLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational,
9. natural and social sciences, 3(3), 1318-1322СЕМИОТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА В ЛИРИКЕ АНВАРА ОБИДЖАНА
10. Qahhor Yo'lchiyev - Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali, 2023. №1. – C383-387. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xNOt6eMAAAAJ&citation_for_view=xNOt6eMAAAAJ:mVmsd5A6BfQC
11. LIRIK JANR HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR.Q Yo'lchiyev - Scientific journal of the Fergana State University, 2022. № 2

WORDLY
KNOWLEDGE